

**O'ZBEKISTONDA DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISH VA BOSHQARISH****Hazratqulova Shahlo Toyir qizi**

Toshkent kimyo- texnologiyalari instituti Shahrisabz filiali

“Iqtisodiyot” yo`nalishi 2-bosqich talabasi

[hazratqulovashahlo61@gmail.com](mailto:hazratqulovashahlo61@gmail.com)

Telefon raqami:+998 97 058 29 59

**Annotatsiya:** Maqolaning mohiyati , jamiyat rivojining hozirgi bosqichida mulkchilik munosabatlari o'z ichiga davlat mulkini, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va matbuot sohasidagi jamoa mulkining xilma-xil turlarini, ijtimoiy tashkilotlar mulkini, uy xo'jaligi va shaxsiy tamarqa xo'jaligi hamda yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mehnatkashlarning shaxsiy mulkini, tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasidagi aralash mulk shakllarini va shu bilan birga xususiy mulklarni qamrab oladi.

**Kalit so'zlar:** “Davlat mulki”, “mulkchilik”, “xususiylashtirish”, “Shaxsiy mulk”, “Mulkn davlat tasarrufidan chiqarish”, “rentabellik”.

**Kirish.** Iqtisodiy siyosat - bu iqtisodiyot subyektlarining o'z faoliyatiga oid yo'l-yo'riqlari va sa'y-harakatlarining majmuidir. Har bir iqtisodiyot ishtirokchisining, bu xonadonmi, firmami yoki davlatmi buning farqi yo'q, o'z manfaatlarini bor. Bu manfaatlar amaliyotda aniq maqsad shakliga kiradi, iqtisodiy siyosat esa uni amalga oshirishga qaratiladi. Xonadonning maqsadi o'z iste'molini maksimumlashtirish va kelajakni ta'minlash uchun jamg'arma hosil etishdir. Firmaning maqsadi esa foydani maksimumlashtirish va iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta'minlashdir. Davlatning maqsadi esa, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini va shu asosda xalq farovonligini ta'minlashdan iborat. Ammo bozor iqtisodiyotining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy jihatlari ham mavjuddir. Ularning eng asosiysi iqtisodiyotdagi obyektiv qonunlar va munosabatlar, regulyatorlar asosida shakllanadigan bozor muvozanati hamda mutanosibliklarning buzilishi oqibatida vujudga keladigan nomutanosibliklarning kuchayishi, iqtisodiy tanglik va inqirozlardir. Inqirozlar natijasida iqtisodiy pasayish, ishsizlik, inflyatsiyaning kuchayishi, xalq turmush darajasining yomonlashuvi sodir bo'ladi. Shu boisdan ham davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va uni ustuvor ravishda iqtisodiy dastak va vositalar yordamida tartiblashi zarur bo'ladi. Bu esa zamonaviy bozor iqtisodiyotining o'zini o'zi tartiblashning bozor mexanizmi bilan uni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini uyg'unlashtirishni hamda unga mos ravishda davlat iqtisodiy siyosatini shakllantirishni taqozo etadi.

**Metodologiya.** Iqtisodiy islohotlar jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Harakatlar strategiyasida ushbu masalaga alohida e'tibor berilib, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish uchinchi ustuvor yo'nalish etib belgilandi. Shuningdek , makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish dolzarb masala hisoblanadi.

Mulkchilik munosabatlari – bu mulk obyektini o'zlashtirish bo'yicha mulk subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatdir. Mulkchilik huquqlari esa mulk subyektlarining mulk obyektiga nisbatan munosabatidir, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak , undan foydalanish va nazorat qilish yuzasidan kelib chiquvchi huquqlar majmuidir.

Xususiylashtirish – fuqarolarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki ob'ektlarini yoki davlat aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir. Bundan ma'lumki , mulkn davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirishga qaraganda ancha keng tushuncha. Xususiylashtirish – davlat mulkiga egalik huquqining davlatdan xususiy shaxslarga o'tishidir. Shaxsiy mulk – bu fuqarolar mulki bo'lib, ularning shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Mulkn davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirishdan tashqari, bu

mulk hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirishni ham ko'zda tutadi. U bir nechta yo'llar bilan amalga oshiriladi: davlat korxonalarini hissadorlik jamiyatiga aylantirish, davlat korxonasini sotib, uni jamoa mulkiga aylantirish; mulkni qiymatga qarab chiqarilgan cheklar bo'yicha fuqarolarga bepul berish; mulkni ayrim tadbirkor va ish boshqaruvchilarga sotish; ayrim davlat korxonalarini chet el firma va fuqarolariga sotish yoki qarz hisobiga berish; davlat mol-mulkini auksionlarda kim oshdi savdosi orqali sotish. Xususiylashtirishning usullari ham turli-tuman bo'lib, ularni uch guruhga ajratish mumkin: 1) davlat mulkini bepul bo'lib berish orqali xususiylashtirish; 2) davlat mulkini sotish orqali xususiylashtirish; 3) davlat mulkini bepul bo'lib berish hamda sotishni uyg'unlashtirish orqali xususiylashtirish. Xususiylashtirishning hozirgi bosqichiga xos xususiyatlar va tamoyillar:

- xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik huquqini himoya qilishga oid qonunchilikni yanada mustahkamlash;
- xususiylashtirish ishlariga nisbatan munosabat va yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, iqtisodiyotning yetakchi sohalariga qarashli korxonalarining aksiyalarini kimoshdi savdosiga qo'yish;
- davlat mulkini xususiy sarmoyadorlarga sotish samarasini ta'minlashda investorlarning korxonalarini rivojlantirishga qaratilgan investitsiya majburiyatlari bilan jalb etilishi ustuvorligi;
- zarar ko'rib ishlayotgan, past rentabelli, istiqbolsiz davlat korxonalarini va ulardagi davlat ulushini investitsiya majburiyatlari evaziga nolga teng xarid qiymati bo'yicha xususiy mulkka sotish.

Davlat mulki – egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish davlat ixtiyorida bo'lgan mulk obyektlaridan iborat. Davlat mulki asosan ikki yo'l bilan hosil bo'ladi: 1) xususiy mol-mulkni milliyashtirib, davlat qo'lga olish; 2) davlat mablag'lari hisobidan korxonalar qurish, davlatga qarashli korxonalar va tashkilotlarda investitsiyalarni amalga oshirish.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni bilan bir vaqtda bozor infratuzilmalari shakllandi so'ngra ular rivojlanish bosqichiga o'tdi. Bu fond, tovar hamda ko'chmas mulk bozorlari, investitsion fondlar, auditorlik, konsalting va shunday boshqa tuzilmalarni tashkil topishi va rivojlanishi bilan namoyon bo'ldi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 20-iyuldagi "2007-2010-yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish bo'yicha choralar to'g'risida"gi PQ-672 sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 18-noyabrda "Iqtisodiyot real sektori korxonalarini moliyaviy barqarorligini yanada oshirish bo'yicha choralar to'g'risida"gi PF-4053-sonli Farmoni, 2008-yil 24-apreldagi "Baholash tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish va ularning ko'rsatiladigan xizmatlar sifati uchun mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi PQ-843-sonli Qarori qabul qilingan.

**Natijalar.** Xususiylashtirish va mulkdorlar safini kengaytirish, islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishning ustuvor yo'nalishidagi qilinishi lozim bo'lgan muhim vazifalar quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish bo'yicha ishlarni davom ettirish;
- aksiyalashtirish amaliy natija bermagan korxonalar va obyektlarni xususiy mulkdorlarga berish;
- yangi mulkdorlarning korxonalar samarali faoliyatini ta'minlash, investitsiya majburiyatlarini so'zsiz bajarish bo'yicha huquqiy va iqtisodiy javobgarligini oshirishni ko'zda tutgan holda amaldagi qonunchilikning me'yorlarini qayta ko'rib chiqish va kuchaytirish;
- xususiylashtirish jarayoniga ishlab chiqarishni moder-nizatsiyalash hamda texnik va texnologik jihatdan yangilash, jahon bozorida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladigan ishonchli va mas'uliyatli investorlarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish natijasida qabul qilingan yangi qonunlar quyidagilardan iboratdir:

- "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" ;
- "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida" ;
- " Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida" ;
- "Raqobat to'g'risida" .

Bugungi kunda xususiylashtirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumat qarorlari bilan tasdiqlanadigan Xususiylashtirish dasturlari doirasida davlat mulki obyektlarini xarid qiymatida yoki "nol" qiymatda xususiylashtirish;

2) Davlat tender komissiyasining qarorlariga asosan mahalliy hokimlik balansidagi past likvidli obyektlarni aniq investitsiya majburiyatlari evaziga xorijiy investorlarga to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish orqali "nol" qiymatda xususiylashtirish;

3) Xususiylashtirishning boshqa shakllari (mulkni tasarruf etuvchilarning qarorlariga asosan to'g'ridan-to'g'ri sotish, xo'jalik jamiyatlarining ustav fondiga davlat ulushi sifatida kiritish va h.k.) orqali davlat mulki bo'lgan obyektlarni xususiylashtirish.

Keyingi yillarda mamlakatimizda vujudga keltirilgan davlat mulklarini ommaviy savdolarida xususiylashtirish mexanizmlari quyidagilardan tashkil topgan:

Xo'jalik jamiyatlari ustav fondidagi davlat aksiyalar paketlari - fond birjasi orqali xususiylashtiriladi;

MCHJ larning ustav fondidagi davlat ulushlari - auksion (tanlov) savdolarida xususiylashtiriladi;

Davlat mulki bo'lgan ko'chmas mulk obyektlari - rieltorlik tashkilotlari orqali xususiylashtiriladi;

Davlat mulki bo'lgan faoliyat yuritmayotgan obyektlar, shu jumladan qurilishi tugallanmagan obyektlar zamonaviy ishlab chiqarishni yoki xizmat ko'rsatishni tashkil etish maqsadida investitsiya kiritish sharti bilan "nol" qiymatda Davlat tender komissiya tomonidan tanlov shartlari tasdiqlangandan so'ng hududiy tender komissiyalari tomonidan xususiylashtiriladi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni bilan bir vaqtda bozor infratuzilmalari shakllandi va ular rivojlanish bosqichiga o'tdi. Bu fond, tovar hamda ko'chmas mulk bozorlari, investitsion fondlar, auditorlik, konsalting va shu kabi boshqa tuzilmalarni tashkil topishi va rivojlanishi bilan namoyon bo'ldi.

Davlat mulkini xususiylashtirish bo'yicha jadvalni tuzish uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar ko'rsatiladi. Xususiylashtirish jarayonida turli obyektlarning xususiylashtirish sektoriga o'tkazilishi, sotilishidan tushgan mablag'lar va xususiylashtirish sektor tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar haqida ma'lumotlar ko'rsatiladi.

T / R	Obyekt nomi	Xususiylashtirish turi	Xususiylashtirish usuli	Sotuv summasi	Sotuv sanasi	Yangi egasi (xaridor)	Qo'shimcha investitsiyalar loyihalar
1	Mashinasozlik zavodi	Davlat ulushini sotish	Tanlov (konkurs)	1000000\$	01.01.2024	XYZ Ltd	500000\$

2	Tijorat banki	To'liq sotish	Auksion	5000000\$	15.03.2024	ABC Invest	1200000\$
3	Qishloq xo'jaligi fermasi	Davlat ulushini kamaytirish	Direkt shartnoma	750000\$	10.02.2024	DEF Corf	300000\$
4	Turizm markazi	To'liq sotish	Auksion	2500000\$	22.04.2024	GHI Ltd	800000\$

**Xulosa.** Davlat mulkini xususiylashtirish mamlakatni iqtisodiy tomondan rivojlantirishga katta turtki bo'lib xizmat qiladi. Davlat mulkini xususiylashtirish aholini turmush tarzini yaxshilash, iqtisodiyotni rivojlantirish, aholini kambag'allikdan chiqarish, ishchi o'rinlarini ko'paytirish ya'ni ishsizlik ko'rsatkichlarini kamaytirish, tadbirkorlikni ko'paytirish, investitsiyalarni jalb qilish kabi imkoniyatlarni ochib beradi. Bu orqali davlat o'z-o'zidan rivojlana boradi. Shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun salmoqli xissa qo'shishi haqida aytib o'tish darkor.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Balatskiy E.V., Jahon iqtisodiyoti fani at hozirgi bosqich: inqiroz yoki yutuq / E.V. Balatskiy // Fan fani.- 2001.- №2.- s. 68-72.
2. Barnetenev S.A., Tarix iqtisodiy doktrinalar savol-javoblarda: Darslik / S.A. Bartenev .- M .: Yurist, 2000 .- 192s.
3. Bazylev N.I., Gurko S.P. Iqtisodiy nazariya, - M., BSEU, 2003, s. 159.
4. Abduraxmonov Q.X., Toxirova X.T. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv. Qo'l. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, TDIU, 2004.

**Foydalanilgan internet resurslari:**

- 5.Kun.uz
- 6.Lex.uz
- 7.Wikipediya